Holati: Ijobiy
Direktor: Dilshodjon Mirzaraximov Ilxomjonovich

2026 - yil 23 - fevraldagi 274383 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Beruniy MFY Tong ko’chasi 151-a-uyda sport zal, mini futbo’l maydoni hamda hovuz bino va inshootlari qurish”
Buyurtmachi: "MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Bosh loyihachi: "DAVR MEMORI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: Tanlov asosida
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 112490

1. Loyihalash uchun asos.

Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 21.10.2025 yil kungi №221504944-sonli ruhsatnomasi.

Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 13.11.2025 yil kungi №1730-1730230-243890 -sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i (APZ).

Buyurtmachi “MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 01.12.2025-yildagi tasdiqlangan loyihalashtirish uchun topshirig’i.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “FARG‘ONA HETK” AJ ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 30.12.2025 yil kungi №30230149455-sonli texnik sharti.

“Farg’ona suv ta’minoti” AJ ning ichimlik va oqava suv tizimiga ulanish uchun 17.11.2025 yil kungi №2685-sonli texnik sharti.

“Hududgazta’minot” AJ ning 17.11.2025 yil kungi №5173-5469-1b33-df3a-1772-0053-2278-sonli xabarnomasi.

“QO’QON YO’L LOYIHA” MCHJ tomonidan 2025-yilda tayyorlangan muhandislik – geologik shartlar bo'yicha xulosasi.

Buyurtmachi “MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda loyihachi “DAVR MEMORI” MCHJ o’rtalarida imzolangan loyihalash uchun 06 .01.2026 yildagi №23-sonli o’zaro shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bo’limining 21.10.2025 yil kungi №221504944-sonli ruhsatnomasi.

Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 13.11.2025 yil kungi №1730-1730230-243890 -sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i (APZ).

Buyurtmachi “MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 01.12.2025-yildagi tasdiqlangan loyihalashtirish uchun topshirig’i.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “FARG‘ONA HETK” AJ ning elektr tarmoqlariga ulanish uchun 30.12.2025 yil kungi №30230149455-sonli texnik sharti.

“Farg’ona suv ta’minoti” AJ ning ichimlik va oqava suv tizimiga ulanish uchun 17.11.2025 yil kungi №2685-sonli texnik sharti.

“Hududgazta’minot” AJ ning 17.11.2025 yil kungi №5173-5469-1b33-df3a-1772-0053-2278-sonli xabarnomasi.

“QO’QON YO’L LOYIHA” MCHJ tomonidan 2025-yilda tayyorlangan muhandislik – geologik shartlar bo'yicha xulosasi.

Buyurtmachi “MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyati hamda loyihachi “DAVR MEMORI” MCHJ o’rtalarida imzolangan loyihalash uchun 06 .01.2026 yildagi №23-sonli o’zaro shartnoma.

Davlat ekologik ekspertizasining 19.01.2026 yil kungi №01-02/12-5348-sonli ijobiy xulosasi.

Farg’ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 22 .12.2025 yil kundagi №236204611-sonli ijobiy xulosasi.

“DAVR MEMORI” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan “Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Beruniy MFY Tong ko’chasi 151-a-uyda sport zal, mini futbo’l maydoni hamda hovuz bino va inshootlari qurish” ishchi loyihasi:

- Albom-1: Bosh reja
- Albom-2: Arxitektura rejalashtirish qismi;
- Albom-3: Temir-beton konstruksiya qismi;
- Albom-4: Elektr ta’minoti qismi;
- Albom-5: Isitish tizimi va ventilyatsiya qismi;
- Albom-6: Suv ta’minoti va kanalizatsiya qismi;
- Albom-7: Yong’in signalizatsiyasi qismi;
- Albom-8: Nogironligi bor shaxslar va keksalar ehtiyojlari uchun loyiha qismi;
- Jild: Smeta hujjatlari;
- Jild: Umumiy tushuntirish xati;

Vaziyat rejasi

M1:2000 bosh rejasidan ko'chirma

Buyurtmachi “MAXMUDJON MUSLIMAXON SAVDO” mas'uliyati cheklangan jamiyatining murojat xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

BOSH REJA

Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Beruniy MFY Tong ko’chasi 151-a-uyda sport zal, mini futbo’l maydoni hamda hovuz bino va inshootlari seysmikligi 8 ball bo‘lgan II iqlim mavzesida shag‘al tuproqda qurish uchun mo‘ljallangan.

Qurilish maydoni quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi:

Loyiha quyidagi xususiyatlarga ega II iqlim mintaqasi uchun ishlab chiqilgan:

- standart qor yuki -50 kg/m²
- shamol yuki – 0,38 kg/m²
- qishda taxminiy tashqi havo harorati -14 °C
- hisoblangan seysmiklik - 8 ball

Obyekt yer maydoni shimol, sharq tomondan maxalliy yo‘l xzududi, janubdan mavjud noturar joy binolar va g‘arb tomondan mevazor bog‘ maydoni bo‘yicha bilan chegaralangan. Hukmron shamollar yo‘nalishi janubi-sharqiy bo'lib, Qurilishdan holi hudud obodonlashtirilib, ko‘kalamzorlashtirish nazarda tutilgan.

SPORT ZAL BINOSI

Qurilish maydoni: 782.08 m2 hajmi: 7218.30 m3 bino qavati: 1

Bino bir qavatli yerto’lasiz bo’lib, o’qlari bo’yicha quyidagi o’lchamdagi to’rtburchak shaklga ega: 41.8x18.4 m; Bino qavatining balandligi poldan shiftgacha: sport zal qismi – 9,0 m; kirish qismi – 3,0 m.

Konstruktiv yechimi:

Poydevori – quyma tasmasimon temir beton;

Ustunlar – quyma temir beton, kesim yuzasi – 400x400 mm; devorlarning mustahkamlash uchun - o’zaklar (сердечники) monolit temir betondan qilingan;

Tashqi devorlar – qalinligi 380 mm, M75 markali pishgan g’ishtdan, M50 markali qum-sement qorishmasi plastifikatorlar bilan ishlatiladi, qorishma II-toifada 120<R<180 kPa;

Yopma – ko’p bo’shliqli yig’ma temir beton plita va metall ferma;

Tom qismi – profnastil listdan, yog’och va metall konstruktiyalardan tashkil etilgan;

Eshiklar – alyumin profilidan;

Deraza va vitrajlar – alyumin profilidan;

Pol – keramik plitka, laminat;

Tashqi devor bezaklari – sifatli qumli suvoq, bazalt qoplama plitasi, qalinligi 50mm va dekorativ travertindan;

Ichki pardozlash ishlari: devorlari – yahshilangan suvoq hamda suvga asoslangan emulsiya boyog'i bilan bo’yash;

Asos (цоколь) qismi – sifatli qumli suvoq va keramik plita bilan qoplash;

TABIIY STADION 1 dona

Qurilish maydoni: 2280.0 m2.

O'lchami 40,0x57,0 m bo'lgan rejada to’rtburchak shaklga ega.

SUN’IY MINI STADION 3 dona

Qurilish maydoni (1 donasini): 924.0 m2.

O'lchami 25,0x40,0 m bo'lgan rejada to’rtburchak shaklga ega. Inshoot balandligi pol qoplamasidan metal fermagacha – 8m;

Konstruktiv yechim.

poydevori – lentasimon monolit temirbetondan;

ustunlar – metal profil, sim to’r bilan o’ralgan;

eshik va deraza oraliqlari tepadon (перемычка) – monolit temir beton;

orayopma – metal ferma;

tom – metal profnastil listdan;

yomg’ir suv quvurlari – polimer qoplamali g’ovakli metall quvurlardan yasalgan drenaj tornovlar va quvurlar orqali tashkil etilgan;
Pol qoplamasi – sun’iy rezina qoplamasi;

Nogironligi bor shaxslar va keksalar uchun:

Obyekt hududida loyihalanadigan avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 10 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan, bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan, hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 sm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan, eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko’rsatilgan, ko‘rishda va eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma’lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan,
Ishchi loyiha “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Suv ta’minoti va kanalizatsiya.

Loyiha QMQ 2.04.01-98 "Ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari" me'yorlariga asoslanadi. Loyiha suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Loyihalash ishlari QMQ 2.04.02-19.ga asosan amalga oshirildi.
Sovuq suv ta’minoti mavjud ichimlik suv tarmog’iga alohida ichimlik suv qudug’i qurish sharti bilan suvni ortga qaytishini nazoratga oluvchi moslama hamda zamonaviy suv hisoblagich o’rnatish asosida loyihalangan. Tarmoq politelin trubalardan tortiladi ГОСТ 52134-2003 bo’yicha. (loyiha bo’yicha).
Issiq suv ta’minoti ikkinchi bosqichda amalga oshiriladi. V=50 l hajmdagi elektr suv isitgichlari va quyosh suv isitgich panellari o’rnatilishi rejalashtirilgan. Tarmoq d=15 bo’lgan polipropilen trubalardan tortiladi.
Hududda markaziy kanalizatsiya tarmog‘i mavjud emasligi sababli maishiy oqava suvlar tuman SEOM bilan kelishilgan holda sig‘imi 25 m3 bo‘lgan maxsus kanalizatsiya qudug‘iga quyiladi. Quduqning tashqi yuzalari issiq bitum bilan 2 marta bo’yaladi. Tarmoq D=50-100 mm bo’lgan politelin trubalardan ГОСТ 22689-89 bo’yicha qilinadi, trubalar pol ostidan ochiq yotqizilgan tartibda tortiladi. Tashqi qismi qalinligi 0,10 m bo’lgan yumshuq tuproq orasida ko’miladi. “Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” QMQ 2.04.03-19 ga asosan ishlab chiqilgan.
Quvurlarni yotqizish va o’rnatish QMQ 3.06.08-97 va QMQ 3.05.01-97 larga asosan amalga oshirilishi lozim.

Issiqlik tizimi.

Loyihaning ushbu qismi tasdiqlangan loyiha topshirig’iga, arxitektura-qurilish chizmalariga va texnoligik vazifalarga asosan ishlab chiqilgan. Quyidagi huquqiy normativ hujjatlardan foydalanilgan:
СНиП2.04.05-91* «Issiqlik, ventlyatsiya va konditsionerlashtirish».
СНиП11-3-79* «Qurilishda issiqlik texnikalari».

СНиП2.08.02-89* «Jamoat binolari».
Loyiha quyidagi havo parametrlari uchun mo’jjallangan:
yozgi isitish tizimlari uchun=+34,3C;
qishki isitish tizimlari uchun=-14 C;
Loyihada elektr isitish qozoni tizimidan foydalanish ko’zda tutilgan. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi 90-700 C suvdir. Isitish tizimi gorizontal ikki quvurli qabul qilinadi. Alyuminiy radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi PN-25 tipidagi polipropilen quvurlar va havoli istish qurilmasi (AVO 43) qabul qilinadi. Tashqi issiqlik tarmoqlari yer ostida kanallarda o‘tkazilgan issiqlik tashuvchi quvurlar metalldan. Qoplamalar va devorlarning kesishmasidagi quvurla yonmaydigan materiallardan yasalgan yenglarga yotqizilgan. Shamollatish mexanik ravishda boshqariladi.

Shamollatish (ventilyatsiya) tizimi.

Binoda tabiiy va mexanik ventilyatsiya qo'llanilmoqda. Xonalarga toza havo oqimi derazalar va darchalar orqali amalga oshiriladi. Sanuzellardan havoni so'rib chiqish yumaloq kannalli ventilyatordan foydalaniladi.
Isitish va shamollatish tizimlarini o’rnatish, sinovdan o’tkazish va qabul qilish QMQ 3.05.01-97 “Ichki sanitariya tizimlari” talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Elektr ta’minoti va yong’in signalizatsiyasi. Asosiy ko’rsatmalar.

Obyektning elektr ta'minoti loyihasi me'moriy-qurilish bo'limi va nuqson dalolatnomasi asosida amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq bajarilgan. Obyektning elektr yoritish va jihozlash ishchi loyihalari sanitar-texnologik va issiqlik tehnikasi bo'limlari, ma'lumotlari asosida joriy QMQ-2.04.17-98, EUTQ (ПУЭ)-2011 ga muvofiq ishlab chiqildi.
Loyihada ishchi yoritish tizimi. Shuningdek elektr jihozlari o’rnatilishi ko'rsatilgan. Yoritish chiroqlari binoni konstruktiv hususiyatlari, xona maqsadi va tashqi muhit hususiyatlariga ko'ra tanlab olingan. Elektr yoritish tizimi uchun svetodiod yoritgichlar qabul qilingan. Barcha xonalarda umumiy bo'lgan bo'lgan yoritish tizimii uchun kalit (выключатель) poldan 1,8m balandlikda, rozetkalar poldan 1,5 m balandlikda o'rnatiladi. Loyihada yoritish shiti УОЩВ-12 IP21 tipidagi shitlarni o'rnatish nazarda tutilgan. Yoritish tizimi va elektr jihozlarini tarqatish tarmoqlari ППВ simlar bilan, plita bo'shliqlarida, devordagi suvoq qatlami ostida va gofirovka qilingan plastmassa quvurlar orqali amalga oshirilyapti. Prezident qaroriga asosan hamda elektr energiyasini tejash maqsadida ЩО shitini muqobil (quyosh) energiyasi bilan ta'minlash loyihada nazarda tutilgan. Elektr qurilmalarining barcha metal tok o'tkazmaydigan qismlari yerlatiladi. Buning uchun tashqi va ichki yerlatish konturi inobatga olingan. Tarmoqlarning neytral simlari va qo'shimcha neytral simlar yerlatish o'tkazgichlari sifatida ishlatiladi. Elkektr toki urishining oldini olish uchun asosiy chorasi sifatida, loyihada barcha elektr jihozlarini nolga tushirilishi ta'minlanadi.
Barcha o'rnatish ishlarini EUTQ (ПУЭ) ga muvofiq bajariladi.

Yong’in xavfsizlik tizimi.

Loyihada yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun yong'indan ogohlantirish-boshqarish paneli «С2000-КС» ni o'rnatilishi rejalashtirilgan. Loyihani ishlab chiqishda qabul qilingan texnik yechimlar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan sanitariya, ekologik, yong'in va boshqa nizom talablariga mos keladi hamda inson hayoti va sog'lig'ini, havfsizligini ta'minlaydi. Loyihada qabul qilingan texnik yechimlar avtomatik yong'indan ogohlantirish, yong'in rivojlanishining dastlabki bosqichida aniqlash, yong'in haqida ishonchli ma'lumot

berish va yong'in qurilmasida yong'in ma'lumotini qayd etish uchun mo'ljallangan.
Elektr ta'minoti tizimida- kislotali akkumulyatorlar mavjudligi sababli muqobil energiya mavjud. Yong'indan ogohlantiruvchi barcha uskunalari 12V zahira kuchlanish manbai bilan ishlashga mo'ljallangan. Yong'indan ogohlantirish qurilmalari sifatida quyidagi habarchilar taqdim etiladi; Tutun habarchilari (ИП-212-141) va qo'l yordamidagi yong'in habarchilari (ИПР-513-10). Loyihada har bir himoyalangan xonada kamida 2 tadan tutun habarchilari o'rnatilishi ko'zda tutilgan.
Yong'indan ogohlantirish tarmoqlari ТРП simidan qilingan, har bir xonadagi yongin habarchilari uchiga bog'lovchi (КС-4) qutilarini o'rnating. Yong'in ogohlantiruvchisi sensori shiftga o'rnatiladi. 1 ta tutun habarchilari tomonidan boshqariladigan maydon 50m2. Loyihada ovozli yong'indan habar beruvchi uskunalar yong'indan ogohlantirishni ta'minlaydi. Kabel va simlarni yotqizishdan oldin ularning holati tashqi tekshirish orqali va bundan tashqari o'tkazgichlarning izolyatsiyasining yaxlitligini tekshirish kerak.

Zilzilabardoshlilik chora-tadbirlari

Loyihada loyihaviy seysmikligi 8 ball bo‘lgan binoning seysmik chidamliligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar kompleksi nazarda tutilgan.
Devorlarning burchaklari va kesishmalari har 675 mm balandlikda gorizontal bo'g'inlarga yotqizilgan armoto'rlar bilan mustahkamlangan.
Peremichkalar devorga kamida 35 sm chuqurlikda va 1,5 m gacha bo'lgan ochilish kengligi uchun kamida 25 sm chuqurlikda o'rnatilgan.
Antiseysmik kamar pastki devorga ulangan vertikal chiquvchi armaturalari bilan mustahkamlangan. QMQ 2.01.03-96 ga muvofiq temir-beton qo'shimchalar bilan devorlarni mustahkamlash nazarda tutiladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

O’zbekiston tumani qurilish va uy-joy kommunal ho’jaligi bo‘limi boshlig‘i;

O’zbekiston tumani SEO va JSX;

O’zbekiston tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi;

Davlat ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi;

Shaharsozlik kengashi bilan kelishilgan;

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **3 823 206 976** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **145 326 849** so'mga kamaytirilib,
3 677 880 127 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **3 271 088 323** so'm
Asbob-uskunalar: **107 528 976** so'm
QQS: **392 530 599** so'm
Ekspertizada batafsil loyihaning quyidagi bo'limlari ko'rib chiqildi: arxitektura va rejalashtirish, konstruktiv echimlar, muhandislik-kommunikatsiya yechimlari va yong'in xavfsizligi.
Ko‘rib chiqish jarayonida ekspert mulohazalari asosida loyihaga quyidagi tuzatishlar va tavsiyalar kiritildi:
Arxitektura va qurilish yechimlari (AR, KJ, KM) bo’yicha:
Umumiy ma’lumotlar listida konstruktiv yechimlari tekshirib chiqilsin;

ta'kidlanganidek, 5.3-bandga muvofiq. GOST 21.114-2013 loyihada obyektning masshtab o'lchovini ko'rsatish tavsiya etiladi;
ishchi loyiha AR qismida binoning balandlik sath ko’rsatkichlari to’g’irlansin;
ishchi loyiha AR qismida tom rejasida tom elemntlari hisobi loyiha bo’yicha berilmagan;
ishchi loyiha KJ qismi devorlarning vertikal ko’rinishi berilmagan;
ta'kidlanganidek, GOST R 21.101-2020 ning 5.4.4-bandida binoning tomining qiyaligini ko'rsatish talab qilinadi, unga rioya qilish tavsiya etiladi;
ishchi loyihada umumiy ma’lumotlar tasnifi listi kamchiliklarini to'ldirish tavsiya etiladi;
“O’zbekiston Respublikasi Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni talablariga, ShNQ 2.07.02-22 “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalari asosan turar-joy hamda jamoat binolari hududlarida nogironlar uchun qulayliklarni ta’minlash va ularning ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda loyihalashtirilsin;
Yong’in xavfsizligi signalizatsiya loyihasi bo’yicha:
SHNQ 2.02.09-2007 "Bino va inshootlarning yong'inga qarshi avtomatlari" ga binoan qo'riqlash va yong'in signalizatsiya tizimlarining ishchi loyihasini ishlab chiqish, loyihani tuman yong'in xavfsizligi bo'limi bilan muvofiqlashtirish;
QMQ 2.03.10-95 ga binoan, metal va yog’och tomlar uchun yong'inga qarshi ishlov berishni ta'minlash;
chizmada birlamchi yong'in o'chirish tizimlarining (o't o'chiruvchilar) joylashishini va yong'in sodir bo'lgan taqdirda odamlarni evakuatsiya qilish sxemasini ko'rsatish kerak;
Tabiatni muhofaza qilish qo ‘mitasi talablariga va boshqa texnik shartlarga rioya qilish;
SHNQ 1.03.07-2010 "Qurilishning mualliflik va texnik nazorati to'g'risidagi nizom" ga muvofiq ish jarayonida u mualliflik, texnik nazoratni amalga oshirishi va yashirin ishlarning dalolatnomalarini tuzishi kerak (monolitik temir-beton konstruktsiyalar, metallni o'rnatish). ustunlar, lintellar, ulanishlar va boshqa elementlari;
me'yoriy hujjatlar, narxlar yoki ish sharoitlari o'zgargan taqdirda, yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar, buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga binoan ish belgilangan tartibda tuzatilishi mumkin.
Smet-baholash qismi bo’yicha:
Avtomobil, minoraб zanjirli kranlari va bortli avtomobillar chiqarib tashlansin.
Armaturalar (silliq, qovurg’ali) 1 tonnasi uchun 9130,0 ming so’m qabul qilinsin.
G’isht (keramik) 1000 donasi uchun 1050,0 ming so’m qabul qilinsin.
Og’ir beton M100 1 kubmetr uchun 300,0 ming so’m qabul qilinsin.
Og’ir beton M200 1 kubmetr uchun 354,821 ming so’m qabul qilinsin.
Tavakkalchilik koeffitsiyenti chiqarib tashlansin.
Transport va tayyorlash-ombor xarajatlari: kabel-sim mahsulotlari uchun – 1,5%; asbob-uskunalar uchun – 2% belgilansin.
Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq loyiha smetaxujjatlariga kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko‘rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan).
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi 220-son qaroriga muvofiq, barcha yangi qurilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan ob’ektlarda

o‘rnatilgan issiq suv iste’moli hajmining kamida 25 foizi ushbu obyektlarda o‘rnatilgan quyosh suv isitish qurilmalari va elektr ta'minoti quyosh panellari orqali qoplanishini ta’minlangan;

Ushbu loyiha hujjatlarida qayta tiklanuvchi va saqlab beruvchi (minvata 120kg/m3) energiya manbalarini o‘rnatish nazarda tutilgan;

“Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi;

Yuqoridagi barcha qayd etilgan izohlar tuzatilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi №579-sonli qarori 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

“Farg’ona viloyati O’zbekiston tumani Beruniy MFY Tong ko’chasi 151-a-uyda sport zal, mini futbo’l maydoni hamda hovuz bino va inshootlari qurish” binosi ishchi loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalariga asosan zilzilabardoshlik, nogironligi bo‘lgan shaxslarga to‘siqsiz muhit yaratilganligi, energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari, yong‘in xavfsizligi nuqtai nazaridan qonunchilik hujjatlari hamda shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga javob beradi hamda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar:

Karabayeva Dilfuza Xudaybergenovna - Muhandislik tarmoqlari bo’yicha mutaxassis
Raxmanov Sherali Yakubjonovich - Energiya samaradorligi bo’yicha mutaxassis
Valijonov Abdulatif Abduraxim O‘g‘li - Yong’in xavfsizligi bo’yicha mutaxassis
Mamirjonov Sarvarbek Avazjon O‘g‘li - Konstruktor
Sotvoldiyev Akbarbek Zafarjon O‘g‘li - Smeta (baholash) bo’yicha mutaxassis
Yusupov Abomuslim Xasan O‘g‘li - Konstruktor